

BARQAROR RIVOJLANISH INDIKATORLARINI GEOGRAFIYADAGI ROLI

O'.Sh.Ramanbergenov
Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada barqaror rivojlanish indikatorlarini geografiyadagi rolini ochib berishga keng to'xtab o'tilgan.

Kalit so'zlar: GAT texnologiyalar, barqaror rivojlanish, tuproqni ifloslanishi, suvni ifloslanishi, monitoring qilish.

Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlarga boy davr bo'lgan XX asrning oxiri va XXI asrning boshiga kelib kishilik jamiyati kelajakda qanday qilib tinch va osoyishta hayot kechirishi mumkinmi degan savol eng dolzarb masalaga aylanib qoldi. Ushbu savolga umumlashtirgan tarzda ilk bor Gro Xarlem Brundtland boshchiligidagi xalqaro komissiya «Barqaror rivojlanish kontsepsiyasi»da javob berishga harakat qildi. Shu tariqa, 1987 yildan buyon dunyo hamjamiyatining birgalikda hal qilayotgan masalalaridan biri – lokal, regional va global miqyosda barqaror rivojlanishga erishish, hisoblanadi. 2015 yil 25–27 sentyabr kunlari BMTning 200 dan ortiq davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etgan Sammitda aynan

Barqaror rivojlanish masalasi kun tartibiga qo'yildi va yaqin 15 yilga mo'ljallangan tadbirlar rejasi e'lon qilindi.

Barqaror rivojlanish kontsepsiyasi – kelajak avlod ehtiyojlarini inobatga olgan tarzda hozirgi zamon kishilik jamiyatining o'zaro uzviy bog'langan ekologik xavfsiz, iqtisodiy ta'minlagan, ijtimoiy muhofazalangan va institutsional birlashgan hayot tarzini shakllantirishni o'z ichiga olgan g'oyalar tizimi. Uning asosiy vazifalari: iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishda tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish va iste'mol qilishning barqaror bo'lmagan modellarini o'zgartirish, qashshoqlikni yo'qotish va aholini ish bilan ta'minlashdir. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda 8 ta barqaror rivojlanish yo'nalishlariga e'tiborni qaratish talab etiladi: o'ta qashshoqlik va ochlikka barham berish, umumiy boshlang'ich ta'limni ta'minlash, erkaklar va ayollar tengligini rag'batlantirish hamda ayollarning

huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish, bolalar o'limini kamaytirish, onalikni muhofaza qilishni yaxshilash, OITV/OITS, bezgak va boshqa kasalliklar bilan kurashish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, rivojlanish maqsadlarida global sherikchilikni shakllantirish.

Tabiiy boyliklardan foydalanmasdan turib biron bir inson, jamiyat yoki davlat faoliyat yurita olmaydi. Ularning bu boqiy dunyoda farovon hayot kechirishlari va rivojlanishlari esa ularni o'rab turuvchi atrof tabiiy muxitdan nechog'li oqilona, ya'ni ilmiy asoslangan tarzda foydalanishlariga bog'liq. Shuning uchun ham qadim-qadimlardan kishilar tabiat boyliklarini o'zlashtirib olish uchun bor kuch va g'ayratlarini ishga solganlar. Natijada davlatlar, jamoalar va kishilar o'rtasida turli ziddiyatlar kelib chiqqan, barqarorlikka jiddiy ziyon yetkazilgan. Dunyo aholisining «demografik portlash» darajasida o'sishi va ilmiy-texnik inqilobiy jarayonlarning jadallashuvi atrof-muhitga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmoqda, ya'ni tabiatga nisbatan antropogen bosimni oshirmoqda.

Inson aql-zakovati yuqori pog'onaga ko'tarilgan bir davrda bunday ayanchli holat bashariyatni jiddiy tashvishga qo'ya boshladi. Bularning sababi atrof-muhitning inqirozli vaziyati ekanligini tushunib yetgan bir guruh fan, madaniyat, maorif va davlat arboblari yuzaga kelgan salbiy ekologik holatdan chiqib ketish rejasini tuzish maqsadida «Rim klubi»ga birlashishdi. Klub a'zolarining 1970 yilda «O'sish chegarasi» deb nom olgan kitobida ularning faoliyati hisoboti tariqasida juda ko'p adadda va tillarda chop etildi. Unda zamonamizning ko'zga ko'ringan shaxslari Yer kurrasidagi aholining o'sishini tabiiy resurslar imkoniyatiga monand ravishda mo'tadillashtirishni taklif etishdi. Ular geometrik progressiya bilan ko'payayotgan Yer yuzi aholisining talablarini arifmetik tarzda ko'payayotgan tabiiy boyliklarning resurs imkoniyatlari «ko'tara olmasligi»ni xalqaro hamjamiyatga uqtirmoqchi edilar. Darhaqiqat, ekologik muammolar aholi zich yashaydigan, yetarli darajada iqtisodiy rivojlanmagan yoki avtaritar va totalitar boshqaruvni demokratik printsiplardan ustun qo'yadigan mamlakatlarda inqirozli darajada tus oldi. Afsuski, ushbu mamlakatlardagi ekologik falokatlar nafaqat ularning o'zlariga, balki nisbatan boy va xavfsiz bo'lgan qo'shnilariga, hattoki, butun Yer yuziga global miqyosda o'z salbiy oqibatlarini o'tkaza boshladi. Bunday «chegara bilmaydigan» ekologik muammolar butun insoniyatni va ayniqsa, progressiv hamjamiyatni larzaga keltirdi. Mazkur turdagi ekologik

muammolarga misol qilib Orol dengizining qurishi, Chernobil va Fukusima AESlarining falokatga uchrashi, Sahroi Kabirdagi cho'llanish jarayonlarining kuchayishi kabi ekologik inqirozli holatlarni keltirish mumkin. Ular nafaqat Ukraina, Markaziy Osiyo, Yaponiya yoki Shimoliy Afrika mamlakatlariga, balki barcha insoniyatga o'z zararli ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Chunki ekologik jarayon va hodisalar na davlat chegarasiga, na tabiiy chegaralarga bo'ysunadi. Har bir mahalliy ekologik talafot avval lokal, keyin regional va alaloqibat, global tusdagi inqirozga aylanib bormoqda.

“Rim klubi”ning hisoboti 1972 yilning 5 iyunida Shvetsiya poytaxti Stokgolm shahrida Butunjahon “Atrof-muhitni muhofaza qilish” Konferentsiyasini chaqirishga asos bo'lib qoldi. Mazkur konferentsiyani, hech mubolag'asiz, xalqaro hamjamiyatning ekologik dunyoqarashidagi tub burilish nuqtasi deyish mumkin. Chunki insoniyat tarixida ilk bor BMTning juda keng qamrovli va salohiyatli maxsus anjumani Yer sayyorasidagi ekologik muammolarni hal qilishga bag'ishlangan edi. Aynan Stokgolm Konferentsiyasidan boshlab davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari alohida bahs va muzokaralar mavzusiga aylandi. Endilikda ekologik muammolarning yechimini topish global miqyosdagi xavfsizlikni ta'minlashning asosiy omili ekanligini hamma tushunib yetdi.

Stokgolm Konferentsiyasida beshta muhim qaror va hujjatlar qabul qilindi:

1. “Stokgolm deklaratsiyasi”da atrof-muhitni milliy, regional va xalqaro miqyosda muhofaza qilishning 26 ta printsiplari ko'rsatildi. Ulardan biri “Har bir inson qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqiga ega, uning sifati esa insonlarning munosib hayot kechirishi va rivojlanishga erishishi uchun yetarli darajada bo'lishi kerak”dir. Deklaratsiya bandlarining birida butunjahon hamjamiyatining atrof-muhit muammolariga nisbatan munosabatlarda: “Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish atrof-muhitni yaxshilash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega”, – deyilgan edi. Ushbu printsipl atrof-muhit sifatini saqlash uchun fan va texnika taraqqiyoti o'sishini cheklashni talab qiluvchi kontseptsiyaga qarama-qarshi aytilgan fikrdir.

2. “Tadbirlar rejasi” 109 banddan iborat bo'lib, unda davlatlar va xalqaro hamjamiyat o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilishning tashkiliy, siyosiy, iqtisodiy masalalari yoritilgan hamda davlatlararo munosabatlar va xalqaro tashkilotlar rolini ko'tarishga alohida e'tibor qaratilgan.

3. Stokgolm Konferentsiyasi tavsiyanomasiga binoan BMT Bosh assambleyasi Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (YuNEP) tashkilotini shakllantirdi.

Universal xalqaro tashkilotning qarorgohi ilk bor Afrika qit'asida, ya'ni Keniya poytaxti Nayrobi shahrida joylashtirildi.

4. Konferentsiyaning ochilish kuni (5 iyun) har yili dunyoda Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

5. Stokgolm konferentsiyasi qarori bilan Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'armaga BMTga a'zo barcha davlatlarga badal to'lovlarini to'lab turish majburiyati yuklandi.

1975 yil avgust oyida Xelsinki shahrida 35 ta Yevropa davlatlari hamda AQSh, Kanada ishtirokida o'tgan Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi (OBSE) da "Yakunlovchi hujjat" qabul qilindi. Mazkur hujjatda butun jahon bo'yicha ekologik xavfsizlikni ta'minlash ham milliy, ham global miqyosdagi masala qilib ko'rsatilgan edi.

Odamlarning tafakkuri, ongi va madaniyatining o'sishi barqaror rivojlanish g'oyasini juda ko'p shakl va ko'rinishda namoyon qildi. Endilikda u ijobiy tarafga qarab mukammallashyapti. Yevropada Rim imperiyasi, Markaziy Osiyoda Amir Temur davlatida barqaror rivojlanishning asosiy ko'rsatkichi imperiyalarning harbiy kuchi, ularning ta'sir etish doirasi hisoblangan bo'lsa, XIX–XX asrlarga kelib ushbu "indicator" sanoat ishlab chiqarish darajasi bilan belgilanadi. Ikkinchi jahon urushining oqibatlarini barqaror rivojlanish aynan butun dunyo hamjamiyatining tinch-totuv yashashi orqali amalga oshishi mumkinligini uqtirdi.

Dunyo hamjamiyatining yangi barqaror rivojlanish kontseptsiyasi birinchi marotaba 1987 yil BMTning Butunjahon atrof-muhit va rivojlanish bo'yi cha Komissiyasi tomonidan ishlab chiqildi. Mazkur Komissiya o'zining Gro Xarlem Brundtland kontseptsiyasi deb nomlangan «Bizning umumiy kelajagimiz» ma'ruzasida BMT Bosh Assambleyasining 1989 yil dekabr oyidagi 44/428-sonli rezolyutsiyasida barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish maqsadida BMTning maxsus konferentsiyasini chaqirish to'g'risidagi qaror qabul qilindi va u alohida mavzu tariqasida kun tartibiga kiritildi. Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi davlatlar va butun dunyo hamjamiyatining xususiyati, mohiyati va tarkibiy jihatdan bir me'yorda (stabil) rivojlantiruvchi qarashlar tizimi.

Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi ishlab chiqarish va iste'mol qilish, aholining o'sishi va ijtimoiy himoyasi o'rtasidagi muvozanatni rivojlangan va rivojlanish yo'lida turgan barcha davlatlarda saqlashni hisobga oladi. Chunki Yer sayyorasidagi atrof-muhit holati ularning birgalikdagi harakat majmuasidir. Ekologik muammolarning yechimi biron bir davlat (masalan, AKD1) yoki biron davlatlar (masalan, «katta sakkizlik») faoliyatiga bevosita bog'liq emasligini biz yuqorida aytib o'tgan edik. Konferensiyaning maqsadi - davlatlarning barqaror rivojlanishi va tinch-totuv yashashini ta'minlash uchun ekotizimlarga tushadigan bosimni kamaytirish. Konferensiyani o'tkazish qo'mitasining bosh kotibi Moris Strang rahbarligida uchta ishchi guruhlarda munozaralar olib borildi.

Rio-92 da bir paytning o'zida BMTning maxsus hukumatlararo muzokaralar qo'mitasi «Iqlimni o'zgartirishni cheklash konvensiyasi» ustida ish olib bordi. YuNEP doirasida esa «Biologik xilma-xillik konvensiyasi»ni ishlab chiqishga kirishildi. AMRKning ochilishigacha eng mukammal tayyorlangan xalqaro huquq loyihasi «Rio Deklaratsiyasi» va yuqorida nomlari tilga olingan ikki Konvensiya bo'ldi. Qolgan me'yoriy hujjatlar bo'yicha fikrlar juda xilma-xil va qarama-qarshi edi.

Barqaror rivojlanish bo'yicha Sammit rejasida asosiy e'tibor davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligiga qaratildi. Aynan ana shu masala yuzasidan ekologik muammolar ham ko'rib chiqildi. Ammo global miqyosda aniq hal etilishi mumkin bo'lgan ekologik masalalar faqatgina qit'alar va mintaqalar bo'yicha ko'rib chiqildi. Barqaror rivojlanish indikatorlari tushunchasi, turlari va ularni amalda qo'llash muammolari har qanday rivojlanish boshqaruvning qay darajada yo'lga qo'yilganligiga bog'liqdir. Boshqaruv esa turli darajada namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, shaxsning barqaror rivojlanishi o'zi uchun ham huquqiy, ham siyosiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham ma'naviy-ma'rifiy, ham psixologik, ham ekologik, ham institutsional nuqtai nazardan boshqarish potentsialini yoki imkoniyatini oshira borishni talab etadi. Zero, ushbu imkoniyatlardan birining yoki hammasining kamaya borishi yoki sustlashuvi albatta, uning barqaror rivojlanishiga ta'sir etishi mumkin. Bunday holat hamjamiyat, jamiyat, davlat rivojiga ham tegishlidir. Chunki ushbu imkoniyat ko'rsatkichlari o'zaro bog'langan va uzviy aloqadorlikda. BMTning barqaror rivojlanish kontseptsiyasining mazmun va mohiyati ham aynan ushbu imkoniyat ko'rsatkichlarining umumlashtirilgan in'ikosidir. Bizning fikrimizcha, BMTning Barqaror rivojlanish

kontseptsiyasi uning universal tipdagi yagona xalqaro tashkilot bo'lganligi uchun ham asosan shaxs - jamiyat - davlat - hamjamiyatning global miqyosdagi boshqaruviga tegishli masalalarni ko'tarib chiqadi va ushbu rivojlanish potentsiali umumlashtirilgan tarzda muayyan iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, institutsional ko'rsatkichlari asosida baholanadi. Baholash ko'rsatkichlarini fanda «indikator»lar deb yuritiladi.

REFERENCES

1. Barqaror kelajak sari. O'quv-metodik qo'llanma. T.: CHINOR ENK, 2013. – B. 242.
2. A. Nigmatov. Ekologiyaning nazariy asoslari. T.: Faylasuflar jamiyati nashriyoti, 2013. – B. 224.



GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING